

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzARB
muammolari**

Jild 3, Son 12/1

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 12/1 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаши хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети хузуридаги

педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шохида Зайневна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Марҳабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик

Бешёғоч кўчаси, 70/10-үй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Елмуратов Икматулла Гайбуллаевич</i> ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ БИРИНЧИ ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ТАРИХИ (1931-1936 ЙИЛЛАР)	12-18
<i>Qitaybekov Azizbek Kenesbek o'g'li</i> QORAQALPOG'ISTONDA HAVO TRANSPORTINING SHAKLLANISHIDA "DOBROLET" AKSIYADORLIK JAMIYATINING O'RNI	19-23
<i>Nawrizbaeva Nurjamal Qudaybergenovna</i> QORAQALPOQLARNING GILAMCHILIGI BILAN BOG'LIQ BA'ZI MAROSIMLAR	24-29
<i>Сайдуллаев Фаррух Умедулло ўғли</i> МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ЭТНОЛОГИК ВА ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРИ	30-35
<i>Berdiqulov Mirolim Tugalvoyevich</i> TO'DA-1 NEOLIT MAKONINING O'ZBEKISTON TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDAGI O'RNI	36-40
<i>Olimjonova Gulida Olimjon qizi</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI ..	41-47
<i>O'ng'arov Lazizbek Amiriddin o'g'li</i> NUROTA TOG' TIZMASINING TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISH TARIXI..	48-53
<i>Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich</i> MILLIY DEHQONCHILIK MADANIYATINI ETNO-TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI (JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA)	54-58
<i>Tilavboyev Muhammad</i> JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR	59-63
<i>To'xtaboyev Xurmatullo Shomirza o'g'li</i> O'ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETINING O'RNI (MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA)	64-68
<i>Рахматиллаев Хасанбой</i> МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ЭТНИК ТАРИХИНИ ЁРИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛИ МАСАЛАЛАР ВА УСУЛЛАРГА ДОИР	69-74
<i>Qurbanova Manzila Boqiyevna</i> BUXORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKHLARI VA ICHIMLIKHLARI	75-80
<i>Ravshanova Gulora</i> QASHQADARYO VOHASIDA MUNTAZAM QUROLLI HARAKATLAR TA'MINOTI (XX-asrning 20- yillarida)	81-85
<i>Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич</i> ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АССР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ	86-90

<i>Baxronov Abdullo Haydar o'gli</i>	
O'ZBEKISTONDA TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDA XALQARO EKSPEDISIYALARINING O'RNI	91-95
<i>Maxmatqulov Jasur Isroil o'g'li</i>	
GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	96-101
<i>Eanova Nilufar</i>	
O'ZBEKİSTON-TURKİYA HAMKORLIGI VA UNİNG NATİJASI (TO'QIMACHILIK SANOATI MISOLIDA)	102-106
<i>Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли</i>	
АФРОСИЁБДАГИ СҮФД МУДОФАА ДЕВОРИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (XX АСРНИНГ 50-80-ЙИЛЛАРИ).....	107-111
<i>Эсонов Зиёдбек Юлдашевич</i>	
ФАРГОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИ ТЎҚИМАЧИЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ	112-117
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i>	
1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI	118-124
<i>To'xtamisheva Fotima Musurmonovna</i>	
MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASI KASHTADO'ZLIGIDA O'ZGARISHLAR.....	125-132
<i>Sattorov Nurbek</i>	
SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING O'ZBEK XALQI ETNOGENEZEI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI	133-138
<i>Hazratov Nurali Burxon ug'li</i>	
QADIMGI KESH VILOYATI HUDUDIDAGI ARXEOLOGIK YODGORLIKALARINING O'RGANILISH TARIXIDAN	139-144
<i>Mamatqulov Bekzod Sherozovich</i>	
O'ZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	145-149
<i>Berdiyev Jamshid</i>	
VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN O'RNI	150-155
<i>Djurakulov Sherzod Davronovich</i>	
SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISHI TARIXI	156-161
<i>Курбанова Дилрабо Шерипбоевна</i>	
ПАРЛАМЕНТ ТАРИХИ ВА ТАРИХШУНОСЛИГИ	162-172

<i>Zuxriddin Boltayevich Juнаев</i> ХОРАЗМДА РЕСПУБЛИКА ТУЗУМИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР (1920-1924 йиллар)	173-181
<i>Mamatdiev Boxodir Bobojonovich</i> QASHQADARYO MUZEYIDAGI NODIR OSTODON	182-186
<i>Norqo'chqarov Xushvaqt Eshnazarovich</i> AFG'ONISTONDA O'ZBEK TILINING QONUNIY ASOSLANISHI, O'ZBEKLAR IJTIMOIY-MADANIY HAYOTIDAGI O'RNI (XX ASR – XXI ASR BOSHLARI)	187-197
<i>Ibragimov Rahmon Ziyodullaevich</i> ТОШКЕНТ ВОҲАСИ СҮНГИ БРОНЗА ДАВРИ ТАРИХИ ТИЗИМИДА: Дағн үдуми ва миграция масалалари	198-203
<i>Azamatova Gulmira Bayirbekovna</i> ОДАМ САВДОСИГА УЧРАГАН МИГРАНТ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР	204-208
<i>Tishabayeva Irodaxon Rasulovna</i> 1960-1970 YILLARDA O'ZBEKİSTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI	209-215
08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ	
<i>Ostonokulov Azamat Abdurakovich, Inoyatov Mardonbek Mo'min o'g'li</i> DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI	216-226
<i>Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich</i> O'ZBEKİSTONDA KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILIY- IQTISODIY MEXANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI	227-232
<i>Отабеков Отажон Гайрат ўғли</i> ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ОПТИМАЛ СОЛИҚ ЮКИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ МАСАЛАЛАРИ	233-243
<i>Шакирова Фарғат Болтаевна</i> ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАҲОЛАШ ИНДИКАТОРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ	244-255
<i>Мамбетназаров Бахыт Бисенбаевич</i> ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЬЕТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ	256-263
<i>Jumaniyazova Ro'za Quvondiq qizi</i> TURIZM INFRATUZILMASI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	264-269
<i>Matniyozov Murodjon Rajabbayevich</i> DESTINATSIYA IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA TURISTLARNING SODIQLIGI VA QONIQISHINING AHAMIYATI	270-278

<i>Хамидова Зарифа Урол қизи</i>	
ДАВЛАТ СЕКТОРИДА ИЧКИ АУДИТ ВА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	279-291
<i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	
KICHIK TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI	292-296
<i>Худойназаров Фахрутдин Хаитович</i>	
ИБН ХАЛДУННИНГ ИҚТИСОДИЁТГА ТАВСИЯЛАРИ	297-304
<i>Nurullayev Hoshimjon Hamidovich</i>	
GASTRANOMIYANING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI	305-313
<i>Кадырова Шарофат Амоновна</i>	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ....	314-323
<i>Бегматова Зиёда Захиджановна</i>	
ДАВЛАТ ИНТЕРАКТИВ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИ АСОСИДА КАДРЛАР БАНДЛИГИНИ ВА УЛАРГА ТАЛАБНИ БАҲОЛАШ	324-332
<i>Shafkarov Bakhrom Khudoyberdievich</i>	
TERRITORIAL FEATURES AND THEIR EFFECTIVE USE IN THE CULTIVATION OF VITICULTURE PRODUCTS	333-340
<i>Masharipova Fazilat Axmedovna</i>	
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI	341-348
<i>Мусинов Дишод Султанович</i>	
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИННИНГИЖТИМОЙ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА	349-359
<i>Шакирова Юлдуз Сайдалиевна</i>	
ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ ДОРОЖНОЙ КАРТЫ АКТИВИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ	360-368
<i>Абдиовохидов Мамуржон Авазхон ўғли</i>	
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНГ МАЗМУНИ, ТАВСИФИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ	369-380
<i>To'xtasinova Muxayyo Mirzasultonovna</i>	
DAVLATNING INNOVATSION TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALASIGA	381-388
<i>Курбанова Раҳима Джамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна</i>	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	389-403
<i>Набиева Нилуфар Муратовна</i>	
ОСОБЕННОСТИ КОМПЛЕКСА МАРКЕТИНГОВОГО ПРОДВИЖЕНИЯ КОМПАНИИ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ	404-416

<i>Safarov Radjabboy Eshmukhammadovich</i>	
KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEXANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	417-428
<i>Sharipova Zulayho</i>	
SANOAT TARMOQLARI KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	429-434
<i>Шарипов Акбар Илхамович</i>	
ЧАКАНА САВДО КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РА҆КАМЛИ МАРКЕТИНГНИ РОЛИ	435-440
<i>Хаджаев Хабибулла Сагдуллаевич</i>	
ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ АНТИМОНОПОЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ.441-447	
<i>Xamzayeva Dilfuza Samarovna</i>	
SURXANDARYO VILOYATIDA TURISTIK MAHSULOTLARNI BAHOLASH VA SAMARALI RIVOJLATIRISH IMKONIYATLARI	448-452
<i>Усманова Насиба Акбаржоновна</i>	
ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УСЛУГ	453-459
<i>Исхакова Сарвар Аюбовна</i>	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ И КВАЛИФИКАЦИЮ ПЕРСОНАЛА В СФЕРЕ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	460-467
<i>Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich</i>	
INNOVATSION TADBIRLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA UNI TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	468-479
<i>To'ychiyeva Nodira G'ulom qizi</i>	
OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR. CHAT GPT YOHUD SUN'YIY INTELLEKT	480-485
<i>Абдураҳимова Саида Аҳмаджановна, Адилова Гўзал Абзаловна</i>	
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛANIШ ТАҲЛИЛИ	486-494
<i>Maxsudov Sherzod Solijonovich</i>	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	495-500
<i>Tadjibekova Dilnoza Bakhtiyorovna</i>	
ENHANCING FINANCIAL RESOURCE FORMATION IN BUSINESSES	501-506
<i>Radjabova Malika Ziyodullayevna</i>	
AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI XUSUSIDA	507-512

09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

<i>Asraqulova Adiba Nabiyevna</i>	
ZAMONAVIY DAVRDA IQTISODGA FALSAFIY QARASHLAR	513-520
<i>Жўраев Аҳмад Муҳаммадиевич</i>	
ТИНЧЛИКПАРВАРЛИК ФОЯЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ	521-530
<i>Гуламова Мавжуда Ташиулатовна</i>	
АХМАД ЗИЁУДДИН АЛ-КУМУШХОНАВИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ФОЯЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ	531-538
<i>Abduxolikova Nasiba Alijonovna</i>	
YOSHLARNING ONLAYN TA'LIM JARAYONIGA TA'SIR ETUVCHI IJOBIY SALBIY OMILLAR	539-544
<i>Yazdonov Zikirillo Shukurilloyevich</i>	
QALANDARIYLIK VA UNING INSON, JAMIYAT TIZIMIDAGI O'RNI	545-552
<i>Sharipova Barno Salimovna</i>	
BIOETIK MADANIYATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY IMIJI	553-558
<i>Xalikulova Umida Rustamovna</i>	
AXBOROT MUHITINING OLIY TA'LIMGA TA'SIRI: KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV OMILLAR	559-564
<i>Abbasova Maftuna Subxonovna, Temirova Xurshida</i>	
OILA VA NIKOH MA'NAVIYATI, OILANI MUSTAHKAMLASH OMILLARI	565-571
<i>Tog'ayev Nodirjon Ergashevich</i>	
AJDODLARIMIZ BOY ILMIY MEROSINING O'ZBEKİSTONDA MA'RIFATLI JAMIYAT QURISH HAMDA YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI	572-576
<i>Kipchoqov Xomidjon Gulomovich</i>	
JAVOBGARLIK PRINSIPINI SHAKLLANTIRISH AXLOQSHUNOSLIKNING ASOSIY MASALASI SIFATIDA	577-581
<i>Raximova Rayxon Abdurasulovna</i>	
ZAMONAVIY OILADA MA'NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMONING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI	582-586
<i>Аззамова Нилюфар Шухратовна</i>	
"АДАБ АЛЬ-ТАБИБ" КАК ИСТОЧНИК НАЦИОНАЛЬНОЙ БИОЭТИКИ	587-591
<i>Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich</i>	
INTELLEKTUAL MADANIYAT YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA	592-596
<i>Nabiiev Mansur Jamxur o'g'li</i>	
DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY G'OYALAR EVOLYUTSIYASI VA MODERNIZATSİYASI	597-603

<i>Kenjayeva Dilrabo Romanovna, Xaydarova Larisa Sunnatovna</i>	
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	604-609
<i>Abduraximova Tursunoy Abduvoxid qizi</i>	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY MOHIYATI	610-615
<i>Tagayev Ganisher Xasanovich</i>	
YOSHLAR ETNOESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA BADIY-ESTETIK OMILLARNING O'RNI	616-625
<i>Шоназаров Жамишид Шухратович</i>	
БЕҲБУДИЙ ВА УНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК ФОЯСИ	626-630
<i>Ҳамраев Сироҷ Абруевич</i>	
ЖАМИЯТ ЯНГИЛАНИШИ ВА ТАДБИРКОР МАҶНАВИЯТИ	631-637
<i>Nabiyev Bekzod Muxammadumarovich</i>	
MAFKURAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARI: O'ZBEKISTON VA XORIJ TAJRIBASI	638-642
<i>Hashimova Gulsina Ismoyilovna</i>	
HARBIY IJTIMOIY ISH VA HARBIY MADANIYATNING HARBIY XIZMATCHILAR FAROVONLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI	643-648
<i>Karimova Gulnoza Yigitaliyevna</i>	
AXLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI	649-655
<i>Sharipova Kamola Usmonjonovna</i>	
YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA ILG'OR XORIJUY DAVLATLAR TAJRIBASINI MILLIY STRATEGIYAGA TRANSFORMASIYALASH ISTIQBOLLARI	656-661

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Tishabayeva Irodaxon Rasulovna
falsafa fanlari doktori (PhD)
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg'ona filiali
O'zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasи katta o'qituvchisi
Email:tishabayevairodahon@gmail.com

1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1960-1970 yillarda maktabgacha tarbiya muassasalarining faoliyati, yangi binolarning barpo etilishi holati ilmiy, tarixiy adabiyotlar va manbalar asosida yoritib berilgan. Bolalar bog'cha va yasllarida tarbiyalanuvchilar soni yildan yilga ortib borish ko'rsatkichlari ham tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu davrda O'zbekiston maktabgacha tarbiya muassasalarining bir necha tarmoqlari haqidagi ma'lumotlar tadqiqot doirasiga tortilgan.

Kalit so'zlar: ehtiyoj, birlashtirilgan, trest, byudjet, boshqarma, organ,nomukammal, capital.

Tishabaeva Irodakhon Rasulovna
Doctor of Philosophy (PhD)
Teacher, Department of Uzbek language and humanities,
Ferghana branch of Tashkent University of
Information Technology, Uzbekistan

ACTIVITIES OF PRESCHOOL INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN IN 1960-1970

Abstract. This article describes the activities of preschool institutions, the state of construction of new buildings in the 1960s and 1970s, based on scientific, historical literature and sources. Indicators of an increase in the number of children raised in kindergartens and flats from year to year have also been analyzed. Also, during this period, information about several branches of preschool institutions of Uzbekistan was drawn into the scope of research.

Key words: need, combined, trest, budget, administration, imperfect, capital.

Тишабаева Иродахон Расуловна
Доктор философских наук (PhD)
Преподаватель кафедры узбекского языка и гуманитарных наук
Ферганского филиала Ташкентского университета
информационных технологий

ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1960-1970-Е ГОДЫ

Аннотация. В данной статье описывается деятельность дошкольных учреждений, состояние возведения новых зданий в 1960-1970-е годы, на основе научной, исторической литературы и источников. Также, проанализированы показатели ежегодного увеличения количества воспитанников детских садов и яслей. Кроме того, в этот период в сферу исследования были вовлечены данные о нескольких отраслях дошкольных учреждений Узбекистана.

Ключевые слова: необходимость, объединенный, трест, бюджет, правление, несовершенный, капитал.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I12.1Y2023N20>

Kirish. Bugun O'zbekistonda yosh avlod tarbiyasining birlamchi va asosiy bo'g'ini hisoblangan maktabgacha ta'lif tizimini yuksaltirish, bog'chalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, bolalarni umumta'lif muassasalariga samarali tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Sohadagi islohotlar natijasida boshqaruv mexanizmi tubdan takomillashtirildi, nodavlat ta'lif xizmatlari ko'rsatish tizimi yaratildi, oliy ma'lumotli tarbiyachi-kadrlar tayyorlash sifatini oshirish masalalari ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda maktabgacha ta'lif tizimi tarixini o'rganish, uning o'ziga xos jihatlarini aniqlash, ularni respublika va jahon jamoatchiligi o'rtasida targ'ib qilish yuzasidan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratyapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q" [24].

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. O'zbekistonda maktabgacha tarbiya muassasalari tarixiga, asosan, XX asrning 50-70-yillaridan e'tibor qaratilgan bo'lib, bu tadqiqotlarda sohaga doir masalalar to'liq ochib berilmagan. 1960-1990-yillarda yaratilgan А.Никольская [14.], I.Qadirov [12.], O.Ishanxodjayevalarning [10.] tadqiqotlari O'zbekistondagi pedagogika tarixini yoritishga bag'ishlangan. Ularda maktabgacha tarbiya rivojlanishining pedagogik asoslari tadqiq etilgan hamda maktabgacha tarbiya muassasalari sonining ortib borishi va mutaxassis kadrlar bilan ta'minlanishi kabi masalalarga alohida e'tibor berilgan.

Ushbu sohaga oid ma'lumotlar mustaqillik yillarida ilmiy izlanishlar olib borgan N.Jo'rayeva [11.], N.Egamberdiyeva [5.] va boshqa olimlarning tadqiqotlarida ham qisman bayon etilgan bo'lib, O'zbekistondagi bolalar bog'cha va yasllari faoliyatining ayrim jihatlariga to'xtalib o'tilgan.

Mavzu tarixshunosligining tahlili shuni ko'rsatadiki, ilmiy ishlarning asosiy qismi maktabgacha ta'lif pedagogikasiga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekistonda maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyati, kadrlar siyosati, shahar va qishloqlarda bog'chalarning ko'payib borishi kabi masalalarni yoritilgan bo'lsa-da, ularda sovet hokimiyati yillaridagi holat deyarli tahlil etilmagan.

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, 1960-1970-yillarning davriy chegarasida

maktabgacha ta'lim muassasalarining faoliyati, maxsus, loyihaviy binolarning qurilishi davriy nashrlar va arxiv manbalarida keltirilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Shu bilan birga, ushbu yillarda bog'cha va yaslilarda qamrov ko'rsatkichlarining ortib borishi, shahar va qishloq bog'chalaridagi o'rta sidagi tafovut, solishtirish, qiyoslash hamda og'zaki tarix usullari orqali yoritishga harakat qilingan.

Muhokama va natijalar. 1959-yil 21-mayda KPSS Markaziy Komiteti va SSSR Ministrler Sovetining "Maktabgacha tarbiya muassasalarini yanada kengaytirish, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar tarbiyasi va ularga tibbiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash choralari to'g'risida"gi maxsus qarori qabul qilingan [17; B.70.]. Bu qarorda bolalarni tarbiya muassasalarida tarbiyalab borishning zarurligi va ahamiyati ko'rsatilgan. Ittifoqdosh respublikalar Maorif ministrlariga 2 oylikdan 3 yoshgacha bolalar uchun yasli-bog'chalar tashkil etish tavsiya qilingan. Bu qarorga asosan, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komiteti va Ministrler Soveti 1959-yil 5-avgustda tegishli qaror qabul qilgan. Unda ta'lim-tarbiya ishlari sifati, bolalar salomatligi va ularning jismoniy rivojlanishi uchun g'amxo'rlikni oshirish zarurligi hamda maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida uzlusizlikni yo'lga qo'yish dolzarb vazifa ekanligi ta'kidlangan. Maktabgacha tarbiya muassasalariga ega bo'lgan zavod va fabrika rahbarlariga mavjud bolalar yasli va bog'chalarini bitta bolalar tarbiya muassasalariga birlashtirish hamda yangi ko'rinishdagi yasli-bog'chalar barpo etish vazifasi yuklatilgan [14; B.3.].

O'zbekistonda bu qaror ijrosini ta'minlash maqsadida ikki turdag'i ta'lim muassasalari bitta bolalar bog'chasiga birlashtirilgan hamda bu yerda ikki oylikdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyalanishi belgilab qo'yilgan [5; B.32.]. Birlashgan bolalar muassasalari katta imkoniyatlarga ega bo'lib, shahar va qishloqlarda aniq sharoit va imkoniyatlardan kelib chiqqan holda bolalarni tarbiyalashda pedagogik jihatdan mos kelgan binolarda tashkil etilishi zarurati yuklatilgan. Shuningdek, 2-3 oylikdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyalanayotgan sog'liqni saqlash organlari tasarrufidagi bolalar yaslarining ma'lum bir qismi ham faoliyatini yasli-bog'chalarda davom ettirishi ko'zda tutilgan. Yasli-bog'chalar faqat zarur sharoitlar bo'lgan binolarda tashkil etilgan. Dastlabki yillarda birlashgan maktabgacha tarbiya muassasalari sanoqli bo'lib, bunday birlashtirilgan muassasalar ota-onalarga juda ma'qul kelgan. Chunki, bolalar yasli va bolalar bog'chalari bir-biridan uzoq masofalarda bo'lishi, ularda katta navbatlarning mavjudligi muammolardan biri edi. Bundan tashqari, yosh bolalar yangi tarbiyachi va yangi bog'chadagi muhitga ko'nikkuncha ancha vaqt o'tardi.

1960-yil 8-martda Ittifoq ahamiyatidagi "Bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari yasli-bog'chalar to'g'risida vaqtinchalik Nizom" [25.] qabul qilindi. Nizomda har bir yasli-bog'chalar rayon, shahar xalq ta'limi bo'limlaridan ro'yxatdan o'tishi shartligi belgilab qo'yildi. Shu bilan birga, maktabgacha tarbiya muassasalarining moliyaviy masalalari va pedagogik faoliyati nazorati tegishli rayon, shahar xalq ta'limi bo'limlari zimmasiga, bolalar sog'lig'ini nazorat qilish sog'liqni saqlash organlariga yuklatilgan. Nizomda 1 yoshgacha bo'lgan bolalarga bog'chalarda alohida tayyorlanadigan sutli ovqatlar berilishi ko'rsatib o'tildi. Bu nizomni amalga tatbiq etish maqsadida respublika bo'yicha, shu jumladan Farg'ona oblastida muayyan ishlar boshlab yuborildi. Xususan, Farg'ona oblast Ijroiya komitetining 1960-yil 21-sentabrdagi 599-son qaroriga ko'ra, Farg'ona shahrida shahar Sog'liqni saqlash boshqarmasiga qarashli 8-bolalar bog'chasi va Farg'ona shahar pilla zavodiga qarashli bolalar yasli, Farg'ona shahar ip-yigiruv fabrikasi qoshidagi bog'cha va 1-sonli yasli, Qo'qon shahrida 140-sonli

bog'cha va 3-sonli yasli, "Bolshevik" zavodining bog'chasi, Sog'liqni saqlash boshqarmasiga qarashli 12-sonli yasli, Toshloq qishlog'idagi Xalq ta'limiga qarashli bog'cha hamda Sog'liqni saqlash boshqarmasiga qarashli yasli, Marg'ilon shahridagi Xalq ta'limiga qarashli 3-sonli bog'cha bilan 4-sonli yasli birlashtirilgan [6; B.1.].

1959-yilda respublikada birlashtirilgan yasli-bog'chalar soni 72 ta bo'lib, ular 4520 o'ringa ega bo'lga bo'lsa, 1965-yilga kelib ularning soni 1149 taga yetdi va 103959 o'ringa ega bo'ldi [10; B.22.].

1960-yil oxirida Farg'ona oblasti bo'yicha shaharlarda 38 ta, qishloqlarda 22 ta doimiy bolalar bog'chalari bo'lib, shahar bog'chalarida 2850 nafar, qishloq bog'chalarida 1250 nafar bolalar tarbiyalangan bo'lsa [7; B.331.], 1961-yilda maktabgacha tarbiya muassasalari 45 taga qisqarib, shaharlarda 32 ta, qishloqlarda 13 tani tashkil etgani holda, tarbiyalanuvchilar soni 3811 nafarni tashkil etdi [8; B.122.]. Maktabgacha tarbiya muassasalarining barcha tarmoqlari bo'yicha jami bog'chalar 113 ta bo'lib, ular 9311 o'ringa ega bo'lsa-da, amalda 8252 tarbiyalanuvchilar qatnagan. Bolalar yaslilari 163 ta bo'lib, 7242 nafar bola qamrab olingan. Yaslilardan 49 tasi shahar va posyolkalarda bo'lib, ular 4252 nafar, qishloqlardagi 114 ta yaslilarda 3098 nafar, sovxozlardagi 75 ta yaslilarda 1600 nafar bola tarbiyalangan [9; B.4.]. Bu ma'lumotlardan xulosa qilish mumkinki, birgina Farg'ona oblasti kesimida maktabgacha tarbiya muassasalarining soni ko'payib, qamrab olish salmog'i ham oshib borgan.

Respublikada partiya-sovet organlari tomonidan maktabgacha tarbiya muassasalari tarmoqlarini kengaytirish va tarbiyachi-pedagog xodimlar sonini oshirish borasidagi ko'rsatmalari natijasida 1959-yildan boshlab maktabgacha tarbiya muassasalarida o'rinalar sonini ko'paytirish ishlari jadallahashgan. Masalan, shu yili 1300 ta bog'chalarda 79875 o'rinn mavjud bo'lgan bo'lsa [12; B.72.], 1960-yildan 1972-yilgacha maktabgacha tarbiya muassasalari soni 3 baravar oshib, 4144 taga yetgan. Ularda tarbiyalanayotgan bolalar soni 4 baravar ko'payib, 433000 nafarni tashkil etgan [11; B.189.].

1960-yilda respublikadagi 1426 ta doimiy bog'chalar va yaslilarda 110,1 ming nafar bolalar tarbiyalangan bo'lsa, 1970-yilda doimiy bolalar bog'chalari 2827 taga, tarbiyalanuvchilar 3110,9 ming nafarga yetgan. Shundan, Farg'ona oblastida doimiy bolalar bog'chalari 116 tadan 3310 taga oshgan hamda qamrov 9500 tadan 32700 nafarga yetgan. Andijon oblastida ham shu manzara kuzatilgan. Jumladan, bu oblastda muassasalar soni 167 tadan 290 taga oshgan va tarbiyalanuvchilar soni 9500 tadan 22800 nafarga yetgan. Mazkur yillar oralig'ida Namangan oblastidagi doimiy bolalar bog'chalari 53 tadan 164 taga yetib, ulardagi bolalar soni 3000 tadan 14600 nafarga oshgan [21; B.3.]. Muassasalar soni va qamrov ko'rsatkichlari uzlusiz oshib borgan bo'lsa-da, ular mavjud ehtiyojni qondirmagan. Bu yillarda ham ko'plab zavod va fabrikalarda ishlovchi ayollar bolalar bog'chalari yetishmasligidan qiyngalgan, ularning mehnat qilish imkoniyatlari cheklanib qolgan.

1960-1970-yillarda Andijon oblasti kolxozlarida doimiy bolalar bog'chalari soni juda sekinlik bilan oshib borgan. Aksariyat kolxoz bog'chalari mavsumiy 9-10 oy ishlagan. 1965-yilda oblastning 229 ta kolxozida jami 40 ta bog'cha-yasli bo'lib, ularda 4052 nafar bolalar qamrab olingan, xolos [1; B.26.]. Kolxozlarda 194 ta mos binolar bo'lsa-da, ular boshqa maqsadlarda foydalilanilgan. Iqtisodiy jihatdan kuchli kolxozlarda ham doimiy bog'chalari bo'limgan. Xususan, Izboskan rayonidagi "Moskva", Yoqubov nomli, "Sharq yulduzi" kabi kolxozlarda, Moskva rayonining Sverdlov nomli, "Leninizm", "Pravda" kolxozlarida, Yangiyo'rg'on rayonining "Telman" nomli, "Navoiy" nomli kolxozlarida doimiy bog'chalar

bo'limgan [2; B.9.]. Aksariyat bog'cha binolari moslashtirilgan binolarda joylashgan bo'lib, bu binolar talabga javob bermagan. Mavjud bog'cha va yaslilarda xodimlar soni 300 kishini tashkil etgan [1; B.5.]. 1968-yilda Andijon oblasti Xo'jaobod rayonida 23 ta doimiy bolalar bog'chalari bo'lib, ularning aksariyati moslashtirilgan binolarda joylashgan. Rayonda bundan tashqari 1675 o'rini 41 ta mavsumiy bog'chalar faoliyat yuritgan. 245 ta brigada yaslilari ham bo'lib, ularning har birida 30 tadan 65 nafargacha bolalar tarbiyalangan. Lekin, mavsumiy bolalar yaslilarida tarbiya faoliyati qoniqarli bo'limgan. Ko'plab kolxoz brigada shiyponlarida tashkil qilingan bolalar yaslilarida bolalar uchun sharoitlar yetarli bo'limgan. Masalan, Muqimiy nomli kolxozning 2 va 6-brigadasida, "Shirmonbuloq" kolxozining 4-brigadasida bolalar ochiq osmon tagida tarbiyalangan. Bundan tashqari, ko'plab kolxozlarda issiq ovqat sifatli tashkil etilmagan. Ayrim hollarda bolalar kolxozchilarning umumiyligini qozonidan ovqatlanishi natijasida 1-sentabrdan 15-oktabrgacha yaslilarga qatnaydigan 979 nafar tarbiyalanuvchilar ich buzilishi, oshqozon kasalliklari bilan poliklinikaga olib borilgan, ulardan 423 nafari davolanishga yotqizilgan [3; B.85.]. Bunday holatlar kolxoz bog'chalarida tez-tez uchrab turgan.

1966-1970-yillarda Andijon oblastining Qo'rg'ontepda rayonida ham maktabgacha tarbiya muassasalari yetishmagan. Rayonda maktabgacha yoshdagi bolalar 25195 nafar bo'lib, ulardan faqat 4258 nafari bog'chalarga qatnagan, bu ko'rsatkich 16 foizni tashkil etgan. 1966-1969-yillarda davlat byudjetidagi bolalar bog'chalari soni oshmagan, qamrov mavjud bog'chalardagi bolalar sonini ko'paytirish orqali amalga oshirilgan. Bolalar bog'chalari markazlashtirilgandan keyin ayrim kolxozlarda mavsumiy bog'chalar qisqartirilgan. "Engels", "Birlashgan", "Kommunizm" kabi kolxozlarda mavsumiy bog'chalari tashkil qilinmagan [1; B.16.]. 1969-yilda kolxozlarda 12 ta doimiy va 30 ta mavsumiy bog'cha va yaslilar tashkillangan bo'lib, doimiy bog'chalarga 570 nafar bolalar (maktabgacha yoshdagi bolalarning 4,3 foizi), mavsumiy bolalar bog'chalariga 1165 ta tarbiyalanuvchi (maktabgacha yoshdagi bolalarning 9 foizi) qamrab olingan. Ularning faqat 116 tasi yoki 50 foizi zamонави binolarda joylashgan edi [1; B.10.]. 1970-yil Qo'rg'ontepda rayonida 30 ta mavsumiy bog'chalardan faqat 1 tasi maxsus qurilgan binoda, 21 tasi moslashtirilgan binolarda va 8 tasi kolxozchilarning uyida faoliyat olib borgan [1; B.15.]. Ayrim hollarda, 6 ta guruh uchun mo'ljallangan binoda 12 tagacha guruuhlar joylashtirilgan [4.].

1954-1965-yillarda maxsus binolar yo'qligi sabab ayrim qishloqlarda mahalla masjidlari o'rnida mavsumiy bolalar bog'chalari tashkil etilgan. Misol uchun, Namangan oblastining Zadaryo rayonidagi 19-bolalar bog'chasi masjidda joylashgan [22; B.110.]. Andijon oblast Voroshilov rayoni Qo'rg'ontepda temiryo'l stansiyasiga qarashli bog'cha tashlandiq holdagi masjid binosida faoliyat olib borgan [23; B.18.]. Bu kabi holatlarning barchasi qamrovni oshirish maqsadida tashkil qilingan bo'lib, ulardagi sharoit umuman talabga javob bermagan. Umumiyligini statistik ma'lumotlarda shuncha qo'shimcha o'rinni yaratilganligi haqida hisobotlar berib borilgan. Maktabgacha ta'lim muassasalari sifat uchun emas, son uchun faoliyat olib borgan.

1967-yilda respublikadagi maktabgacha yoshdagi bolalarning 11 foizi, qishloq joylarda esa 9 foizi bog'cha va yaslilarga joylashtirilgan. Kolxozlardagi doimiy bog'chalarga faqat 52 ming bola jalgan etilgan, xolos. Ko'pgina kolxozlar mavsumiy bog'chalar bilan cheklanib qolgan. Maktabgacha tarbiya muassasalari qurilishiga ajratilgan kapital mablag'larni o'zlashtirish yil sayin bajarilmagan. Xususan, 1966-yil bog'cha va yaslilarda 13800 ta yangi o'rinnlar yaratish rejalashtirilgan bo'lsa-da, reja 7860 ta o'ringa bajarilgan [13.].

Bu holatni Andijon oblasti misolida ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Andijon oblasti kolxozlari doimiy bolalar bog'chalarida tashkiliy va tarbiyaviy ishlarni yaxshilash va bog'chalar faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida 1967-yilda hamma bog'chalarni bir tashkilotga birlashtirib, "kolxozlararo markazlashgan maktabgacha tarbiya muassasalari tashkiloti" tuzilgan [18; B.32.]. Metodik va moliyaviy ishlarni olib borish uchun metodist, buxgalter, hisobchi kassir, ekspeditor lavozimlari joriy qilingan. Tashkilotning nizomi tuzilib, tashkilot o'z muhriga va davlat bankida hisob raqamiga ega bo'lgan. Kolxozlar o'z qaramog'idagi bog'chalar uchun sarflanadigan yillik mablag'larni ushbu tashkilot hisob raqamiga o'tkazgan. Avvalgi yillarga qaraganda oziq-ovqat ta'minoti va ta'lim sifati birmuncha yaxshilangan. Chunonchi, bir nafar bola uchun 1 kunlik oziq-ovqat me'yori 60 tiyinni tashkil etgan [19; B.9.]. Markazlashgan bolalar bog'chalarining faoliyati "Andijon haqiqati", "Kommunist", "O'qituvchilar gazetasi" va "Krestyanina" gazeta va jurnallarida yoritib borilgan.

Respublikada bog'cha-yaslilarda qamrovni oshirish maqsadida ayrim kolxozlarda maktabgacha ta'lim muassasasining yangi ko'rinishi bo'lgan bolalar kombinatlari ochilgan. Bular maktab-internatlar qoshida tashkillangan maktabgacha ta'lim guruhlari edi. Bu kabi bog'chalarga qabul qilingan bolalar maktab ta'limiga to'g'ridan-to'g'ri olib o'tilgan. Xususan, Farg'ona oblasti Oxunboboyev rayoni "Farg'ona" kolxozida shunday tipdagi maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyat olib borgan [20; B.368.].

XX asrning 70-yillariga kelib maktabgacha tarbiya muassasalarini qurish ishlari birmuncha jadallahsgan. Ayniqsa, respublika qishloqlarida doimiy bolalar bog'chalari ko'payib, tarbiyalanuvchilar soni 533,9 mingtaga yetgan va qamrov 5,3 foizga oshgan. Bu holatni Andijon oblasti misolida o'rganilganda quyidagi manzaraga guvoh bo'lamiz, 1970-yilda 140 ta yangi bog'cha va bolalar kombinatlari ochilgan [15; B.48.]. Maxsus loyiha asosida qurilgan bolalar bog'chalari soni yildan yilga ortib borsa-da, bolalar qamrovidagi mavjud muammolar to'la bartaraf etilmadi. Chunki, qishloqlarda qurilgan ikki qavatli bog'cha binolari hudud sharoitiga to'g'ri kelmagan. Natijada, qisqa muddatlarda ta'mirga muhtoj holga kelib qolavergan.

Mazkur davr kolxozlarda qishloq xo'jaligiga qo'shimcha kuchlarni jalb qilish maqsadida ayollarga e'tibor kuchaygan hamda joylarda maktabgacha ta'lim muassasalarni tashkil etish ravnaq topgan. Xususan, 1965-1970-yillarda respublika kolxozlarida 35130 o'rinali doimiy ishlaydigan bolalar bog'chalari ishga tushirilgan. Bu sohada Andijon oblastining Andijon rayoni tashabbus ko'rsatgan. Masalan, rayondagi 24 ta kolxozning barchasida doimiy ishlaydigan bog'chalar tashkil etilgan. Ularda 1500 dan ortiq bolalar tarbiyalangan [16.].

Xulosa. O'zbekistonda maktabgacha tarbiya muassasalari moddiy bazasini yaxshilashga e'tibor kuchaytirilgan bo'lsa-da, 1960-1970-yillarda qurilayotgan bog'chalarning soni aholi o'sish darajasidan ancha orqada qolib, zarur ehtiyojlarni qondira olmadi. O'zbekiston SSRda maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan bir qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilganiga va sohani rivojlantirish uchun qator vazifalar belgilab berilganiga qaramay, bu boradagi ishlarda ancha muammolar saqlanib qolgan. Ko'p bolali ayollar orasida bandlikning ta'minlanmaganligi sabablaridan biri shuki, xizmat ko'rsatish sohasining yetarli darajada rivojlanmagani, shu jumladan, maktabgacha tarbiya muassasalari yetarli emasligi, ko'plab bog'chalarning faoliyati nomukammalligida edi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Andijon VDA, 505-fond, 1-ro'yxat, 501-ish, 5, 10, 15, 16, 26-varaqlar.

2. Andijon VDA, 505-fond, 1-ro'yxat, 267-ish, 9-varaq.
3. Andijon VDA, 607-fond, 2-ro'yxat, 33-ish, 85-varaq.
4. Andijon oblasti Qo'rg'ontepcha tumani "Nihol" bolalar bog'chasi enagasi Xolisxon aya Mamadalieva (1977 yildan 2010 yilgacha ishlagan) bilan shaxsiy suhbat materiallari (1955 yilda tug'ilgan). Andijon oblasti Qo'rg'ontepcha tumani.
5. Egamberdieva N. Ijtimoiy pedagogika. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009. – B. 32.
6. Farg'ona VDA, 2-fond, 573-ro'yxat, 92-ish, 1-varaq.
7. Farg'ona VDA, 1125-fond, 6-ro'yxat, 133-ish, 331-varaq.
8. Farg'ona VDA, 1125-fond, 5-ruyxat, 64-ish, 122-varaq.
9. Farg'ona VDA, 2-fond, 9-ro'yxat, 1-ish, 4-varaq.
10. Ишанходжаева О. Педагогическое основы становление и развитие общественного дошкольного воспитание в Узбекской ССР (1924-1980 гг). Дисс. на соиск. уч. степ. докт. пед. наук – Ташкент, 1990. – С. 22.
11. Jo'raeva N. O'zbekistonda xotin-qizlarga munosabat (XX asrning 20-80-yillari misolida). O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B. 189.
12. Кадыров И. Народное образование Советского Узбекистана. – Ташкент: Ўқитувчи, 1964. – С. 72.
13. Maktabgacha tarbiya muassasalari tarmoqlarini rivojlantiraylik // Namangan haqiqati. 1967 yil 12 iyul.
14. Nikolskaya A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasida izchillik va o'zaro bog'lanish. – Toshkent: O'rta va oliy maktab, 1962. – B. 3.
15. Тохтахўжаева И. Партийная забота о самых маленких // Коммунист Узбекистана. 1972. – №5. – С. 48.
16. To'xtaxo'jaeva I. Baxtli bolalik //O'qituvchilar gazetasi, 1970 yil 31 may.
17. O'zbekistonda maktabgacha tarbiya. – Toshkent: O'qituvchi, 1969. – B. 70.
18. O'z MA, R.837-fond, 41-ro'yxat, 1753-ish, 32-varaq.
19. O'z MA, R.88-fond, 11-ro'yxat, 3148-ish, 9-varaq.
20. O'z MA, R.94-fond, 7-ro'yxat, 416-ish, 368-varaq.
21. O'z MA, R.94-fond, 5-ro'yxat, 7225-ish, 3-varaq.
22. O'z MA, R.94-fond, 5-ro'yxat, 6454-ish, 110-varaq.
23. O'z MA, R.94-fond, 5-ro'yxat, 5509- ish, 18-varaq.
24. <https://kun.uz/uz/news/2022/11/15/sarflangan-investitsiyalar-ortigi-bilan-qaytishiga-shubha-yoq-shavkat-mirziyoyev-maktabgacha-talim-sohasiga-etibor-haqida>
25. http://www.libussr.ru/doc_ussr/usr_5507.htm

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Nº 12/1 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
мастъалияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).